

**HARBIY XIZMATCHILARDA KOMPITENSIYA VA UNI RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ
QILISH USLUBI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12737769>

Xusan G'oziyev

Ilmiy rahbar: Psixologiya fanlari doktori (Dsc) dotsent

Z.Elov

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarda kompetentsiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish, yoshlarda dastlabki harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kamol topishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *harbiy xizmatchilarda kompetentsiya, uni rivojlantirishni tadqiq qilish uslublari, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik, harbiy xizmat, samarali moslashuv, burchga sodiqlik, kasbiy ong.*

Annotation: *This article discusses the socio-psychological features of military service, the study of competence and its development in military personnel, and the completion of initial military-patriotic education in young people.*

Key words: *competence in military personnel, research methods of its development, military patriotism in young people, military service, effective adaptation, loyalty to duty, professional consciousness.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности военной службы, изучение компетентности и ее развитие у военнослужащих, завершение начального военно-патриотического воспитания молодежи.*

Ключевые слова: *компетентность военнослужащих, методы исследования ее развития, военный патриотизм молодежи, военная служба, эффективная адаптация, верность долгу, профессиональное сознание.*

KOMPETENSIYA HAQIDA TURLI OLIMLAR FIKRLARI

Kompetensiya - so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan. "Kompetensiya" deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda kompetentsiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini shakllantirishdan iborat.

Albatta, harbiy xizmatchilarda kompetensiya ularning ushbu sohadan xabardorlik, layoqatliligidan anglab olishimiz mumkin. Kompetensiya so'ziga pedagogika va psixologiyada ko'plab ta'riflar berilgan, biroq kompetensiya biz o'rganayotgan obyektning predmeti hisoblanmaydi.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnya va. A.V.Xutorskiy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin deb hisoblaydi.

Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgizishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir.

Harbiy xizmat – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatlarni va shartnoma asosida Qurolli Kuchlarda va O'zbekiston Respublikasining boshqa harbiy tuzilmalarida xizmatni bajarish bo'yicha davlat xizmatining alohida turidir.

Bugungi kun harbiy xizmatchilarida kompetensiya jarayoni quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

1- bosqichda harbiy xizmatgacha bo'lgan davrda, dastlabki vatan ximoyachisi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarni xosil qilishadi. Ushbu bosqichda o'quvchi maktabgacha va maktab ta'limi, aksariyat xollarda oliy ta'lim jarayonida ham harbiy-vatanparvarlik bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi.

2- bosqich muddatli harbiy xizmat jarayonida, ushbu davrda vatan ximoyachisi o'zining kasbiy kompetentligi va kompetensiya jarayonlarini shakllantirib boradi.

Ushbu bosqich harbiy xizmatchining kompetensiya jarayonlari kasbiy kompetentligi bilan bevosita va bilvosita bog'liqlikda o'rganadi va shakllanadi.

Shu o'rinda harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi jarayoniga to'xtalib o'tamiz.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi bu harbiy xizmat faoliyatga moslashuvi hisoblanadi. Kompetentlik esa komil inson, vatan ximoyachisini shakllanishiga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning kompetentligi bevosita huquqiy, psixologik, pedagogik, kibernetik bilimlar bilan chambarchas bog'liq. Kompetensiya so'ziga pedagogika va psixologiyada ko'plab ta'riflar berilgan, biroq kompetensiya biz o'rganayotgan obyektning predmeti hisoblanmaydi.

Harbiy xizmatchining kasbiy kompetentligi bevosita harbiy xizmatga moslashuvi ya'ni kasbiy faoliyatga moslashuv davri yani, jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

Mana shu o'rinda "Jarayon" so'ziga qisqacha izoh beramiz, yani

"Jarayon" – deganda ma'lum muddatni o'z ichiga oladigan va shu muddatda harbiy xizmatchining xizmatda shakllanadigan, tarbiyalanadigan davri tushuniladi.

"Jarayon" so'zi – arab tilidan olingan bo'lib, oqib borish, sodir bo'lish, ish harakat, voqea-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji ma'nosida tushuniladi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati bir qancha jarayonlardan iborat va bu jarayonlar harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga yo'naltiradi va xizmatga moslashtirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi harbiy kiyim bosh

kiygan kundan boshlanadi. Chunki, avvalo, harbiy kiyimga, keyin muhitga va harbiy xizmatga (kasbiy faoliyatga) moslashadi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi harbiy xizmatchida mana shu uchta omilning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu uchta omil harbiy xizmatchilar kasbiy tushunchasini, ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchi, kasbiy moslashuv, avvalo, har bir harbiy xizmatchining burchiga, vazifasiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati jarayonida qay darajada Umumharbiy Nizom talablariga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi namoyon etilishi

va rivojlanishi har bir harbiy xizmatchida xar-xil kechadi. Buning uchun vaqt kerak, vaqt esa kasbiy bilimlarni bilishga, ko'nikma va faoliyatni anglashga xizmat qilishi lozim. Masalan, amaliyotdan shuni guvohi bo'lamizki, harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatga moslashishlari uchun o'quv yig'ini o'tashadi, ushbu o'quv yig'ini ham bevosita harbiy xizmatchilarni kasbiy kompetentligining namoyon bo'lishi

va rivojlanishiga, shuningdek kompetensiyaga bog'liqdir..

Kasbiy kompetentlik keng tushuncha bo'lib, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatga moslashuvi har bir harbiy xizmatchining, avvalo, o'ziga keyin esa, ularni tarbiyalovchi sub'ektlarga ham bevosita va bilvosita bog'liq.

Kasbiy kompetentlikda har bir harbiy xizmatchining kasbiy, huquqiy, psixologik dunyoqarashi, oilaviy muhiti muhim hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentlikning nazariy jihatlarini o'rganar ekanmiz, shuni yaxshi bilishimiz kerakki, bu jarayon komil inson, vatan ximoyachisini shakllanishiga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi birinchi, o'zini mustaqil, ozod, erkin, vatan va xalq xizmatiga bag'ishlayotganini anglashga yordam beradi.

Ikkinchi, harbiy xizmatchilarning o'z vatanini, xalqini, Prezidentimizni va o'ziga xos milliy insoniy qadriyatlarni himoya qilishga undaydi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy namoyon bo'lishi va rivojlanishi "ijtimoiylashuv" atamasi bilan ham bog'liq. "Ijtimoiylashuv" bir ma'nodagi talqinga ega emas, mazkur atama ba'zi holatlarda "shaxs rivojlanishi" tushunchasining sinonimi kabi o'rganilsa, boshqa holatlarda esa "tarbiya" atamasi kabi talqin qilinadi. Undan tashqari ijtimoiylashuvga sotsiologiyada ham ta'rif berilgan. "Ijtimoiylashuv jarayonida har bir harbiy xizmatchi o'zini anglashi, mustaqil fikrlashi va harakat qilishga layoqat orttiradi" deyiladi. Ijtimoiylashuv so'zi, demak, bevosita harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi bilan bog'liq. Harbiy xizmatchilardada kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi bu birinchi navbatda, avvalo, irodali tarbiyali harbiy xizmatchilarda namoyon bo'ladi. muhitga, "Tarbiya" so'zi qaysi ma'noda ishlatilishidan qat'iy nazar bevosita va bilvosita kompetentlik, ijtimoiylashuv so'zlari bilan bog'liq. Demak, kompetentlik "ijtimoiylashuv" so'zi bilan bevosita bog'liq ekan, biz, ushbu atamaning tarixiy o'zagini o'rganishga harakat qilamiz. Ijtimoiylashuv tushunchasi XX asrning 50-yillarida amerikalik psixologlar, ya'ni A.Parka, D.Dollerda,

Dj.Xolmon, A.Bandur, V.Uolterslarning o'rganish predmeti bo'lgan. "Ijtimoiylashuv"ning eng birinchi izohi, ya'ni ijtimoiy normalar (nizom, buyruq, ko'rsatma va hokazolar) va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni sifatida o'rganilgan. Bizningcha, ushbu tushunchaga bir tomonlama yondashmasdan, balki unga kengroq yondashish kerak deb xisoblaymiz. Birinchi tomoni, ijtimoiylashgan har bir harbiy xizmatchi kasbiy vazifalarni bajarishga faol kirisha oladigan, kasbiy tajribalarni o'zlashtira oladigan; ikkinchi tomoni, harbiy xizmatchi kasbiy faoliyati jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda faol ishtirok eta oladigan, o'z ta'sirini boshqalarga o'tkaza oladigan, o'rnak bo'la oladigan harbiy xizmatchilar tushuniladi. Ijtimoiylashuvni, psixolog A.Urbanovich "Biz tarbiyalash ma'nosida tushunishimiz mumkin emas", deydi. Bizningcha, ushbu fikr juda ham to'g'ri emas, chunki ijtimoiylashuvning o'zi harbiy xizmatchi faoliyatida kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi ma'nosida tushuniladi, ijobiylik esa bevosita tarbiyaning, ta'limning va ijobiy o'zaro munosabatlarning mahsulidir. Ijtimoiy fanlarga, jumladan, pedagogika faniga ham jamiyatdagi o'zgarishlar, taraqqiyot natijasida yangi-yangi atamalar kirib kelmoqda. Shunday atamalardan biri "kompetent" atamasidir. Ushbu atama harbiy xizmatchiga, uning xatti-harakatiga kasbiy faoliyatiga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik bevosita kasbiy ong, kasbiy madaniyatning rivoji bilan uzviy aloqadorlikda shakllanadi va bu bir tomondan harbiy xizmatchining kasbiy kompetentligi, avvalambor, individual xususiyatiga bog'liq bo'lsa, yuqoridagi fikrimizda aytganimizdek, irodasi bilan bevosita va bilvosita bog'liqlikda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan esa har bir harbiy xizmatchini kasbiy faoliyatga kompetentligi komandir va boshliqlarning yordamisiz, qo'llab quvvatlovisiz erishib bo'lmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy fanlarda, "kasbiy kompetentlik" tushunchalariga ta'riflarni o'nlab topish mumkin. Maqolani yozishda o'z oldimga mazkur tushunchani har tomonlama chuqur tahlil etish maqsad qilib qo'yilgan, ammo bu tushunchani birgina maqolada yoritib berish imkoni yo'q albatta. Lekin bir nechta tushunchaga to'xtalib o'tamiz, chunki, maqola asosan muammoning nazariy tomonlarining tahliliga qaratilgan. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatiga moslashuvi harbiy xizmatchilarning faoliyatga samarali moslashuvi va tarbiyalanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, pedagogik, psixologik, huquqiy xatti-harakatlar, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish va kasbiy faoliyatga qo'llash va boshqa harbiy xizmatchilarni ham Nizom talabi doirasida xizmat qilishni talab qiladigan harbiy xizmatchilarni tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa huquqiy kompetentlik tushunchasi bilan ham bog'liq. Huquqiy jihatdan kasbiy kompetentlik harbiy xizmatchida huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'lashimiz mumkin. Lekin, huquqiy jihatdan kasbiy kompetentlik biz o'rganayotgan muammoning bir qismi hisoblanadi va bizni o'rganish obyektimizga taalluqli emas. Harbiy xizmatchi kasbiy kompetentligi xizmat davrida va xizmatdan tashqarida o'zlarini xulq-atvorini va kasbiy huquqiy ongini tarbiyalab boradi.

Bugungi kunda har bir harbiy xizmatchining ijtimoiy muammosini hal qilish ularning manfaatlarini himoya qilish davlat miqyosida hal qilinishi kerak bo'lgan muammolardan

biridir. Jumladan, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, farzandlarining kvota asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishi davlat miqyosida hal bo'lmoqda.

Shaxsning bir bo'lagi bo'lgan harbiy xizmatchi tarixning obyekt va sub'ektidir. Professor U.Tadjixanovning fikricha "Shaxs tarbiya jarayonining asosiy obyektidir".

Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi (davlat xizmatchisining)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim harbiy xizmatchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim harbiy xizmatchilarda mustaqillik, haqiqiy vatan ximoyachisi pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, harbiylik bilim va ko'nikmalarini egallab boorish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonida komandir va boshliqlar faoliyatiga ham bevosita daxldordir.

Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Demak, harbiy xizmatchini o'rganish ham tarbiya jarayonining obyekt hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, harbiy xizmatchilarda kompetensiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish har bir harbiy xizmatchining qay darajada Vatan, xalq, Prezidentimiz oldida Vatan himoyasiga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlardan biri deb o'ylayman. Har bir muammoning nazariy-tarixiy jihatlarini o'rganish ushbu muammoning metodologiyasini tanlashga, o'rganishga bevosita yordam beradi. Harbiy xizmatchilarda kompetensiya va uni rivojlantirishni nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish ularning shakllanishining mazmunini boyitishga xizmat qiluvchi omillarga bog'liq, bunday omillarga quyidagilar taalluqli:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari.
3. Prezidentimiz asarlaridagi nutqlari;
4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari;
5. Har bir harbiy xizmatchining Vatanni ximoyasidagi va jamoat tartibini saqlash faoliyatidagi ishtiroki;

6. Ma'rifat darslaridagi ishtiroki;

7. Axloq-odob sudlarida ishtirok etishi;

8. Yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazish orqali;

9. Ijtimoiy siyosiy o'qish orqali;

10. Jismoniy va jangovar saf tayyorgarligi orqali;

11. Xizmat o'tayotgan joylarda o'tkaziladigan ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda qatnashishda.

Harbiy xizmatchilarda kompetensiya va uni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Umumharbiy Nizom talablariga to'liq rioya etishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, har bir harbiy xizmatchida kasbiy mahorat kasbiy ong, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish lozim.

Kasbiy mahorat, kasbiy tajriba bevosita harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi va xamda kompetensiya rivojlanishi mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi Toshkent-2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari Toshkent-1996.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari.

4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent-2023

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2006. – 73-b. 6. Entonix Giddens. Sotsiologiya. – Toshkent. 2002, 110-bet.

6. Urbanovich A.A. Psixologiya upravleniya. Ucheb. posobiye. – M., Xarvest. 2007. – 604- bet.

7. Harbiy psixologiya va pedagogika I.Saidov Farg'ona-2021

8. Psixologiya E.G'oziyev Toshkent-2011

9. Boyev X.Y “ Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Toshkent 2022.

10. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda kasbiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining bugungi holati va o'ziga xos xususiyatlari. // Ta'lim va innovasion tadqiqotlar – Toshkent, 2022. № 11. –B. 167-171.

11. Ball G.A. Понятие адаптации и его значение для психологии личности. Вопросы психологии. М.: 1989. с. 92-100.

7. Muitsinov S.S.. Молодые воины: воспитание и адаптация в коллективе. - М.: Институт военной истории МО СССР, 1989. - 86 с.